

JAMIYATDA PSIXOLOGIYA SOHASI RIVOJLANISHINING DOLZARB MASALALARI

Adilova Dilafruz Rustamjonovna

Nazarova Dilnora Ravshanbek qizi

Yashnobod tumanidagi 23-maktab psixologlari

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanish bosqichlari, erishilgan yutuqlar hamda mavjud kamchiliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik xizmat tizimini yanada takomillashtirish yo‘llari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: psixologiya, psixologik xizmat, ta‘lim, rivojlanish, yutuqlar, kamchiliklar, kadrlar tayyorlash, amaliy psixologiya.

KIRISH

O‘zbekistonda psixologiya sohasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Ta‘lim tizimida, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda psixologik xizmatning joriy etilishi bu yo‘nalishning dolzarbligini oshirdi.

Psixologiya fanining rivojlanishidagi asosiy yutuqlardan biri maktablarda amaliy psixolog lavozimining joriy etilishidir. Bu orqali o‘quvchilarning ruhiy holatini o‘rganish, muammolarni erta aniqlash va profilaktika ishlarini olib borish imkoniyati kengaydi. Shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarida psixolog kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgani ham muhim yutuqlardan biridir. Zamonaviy psixologik metodlar va texnologiyalarni o‘rganish imkoniyati oshdi.

O‘zbekistonda oilaviy psixologiya, bolalar psixologiyasi va pedagogik psixologiya yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar kengaymoqda. Bu esa amaliy psixologiyaning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Biroq, sohada ayrim kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, ba‘zi ta‘lim muassasalarida psixologik xizmatning samaradorligi yetarli darajada emas. Mutaxassislarining ish yuklamasi yuqoriligi ham muammo hisoblanadi. Shuningdek, ayrim hududlarda malakali psixolog kadrlar yetishmovchiligi kuzatiladi. Bu esa psixologik yordam sifatiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Psixologik madaniyat darajasining pastligi ham muhim muammolardan biridir. Aholi orasida psixologga murojaat qilish madaniyatini yanada rivojlantirish zarur. Kelgusida psixologiya sohasini rivojlantirish uchun zamonaviy metodlarni joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va psixologik xizmat sifatini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda psixologiya sohasi rivojlanish yo‘lida muhim yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, uni yanada takomillashtirish uchun bir qator dolzarb vazifalar mavjud. O‘zbekistonda psixologiya sohasi sekin-asta rivojlanib kelayotgan fan tarmoqlaridan biri sanaladi. Nazarimda bu soha insonlar uchun, juda muhim

bo'lgan sohalardan biridir. Sababi hozirgi globallashtirish jarayonida nafaqat dunyo mamlakatlari balki o'zimizning O'zbekistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatib bo'ldi. Hozirgi kunda agressiv va deviant xulqli insonlarning ko'payishida ham psixologiyaning o'rnini qanchalik muhim ekanligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarorga binoan. So'nggi yillarda mamlakatimizda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab quvvatlashga oid qator ishlar amalga oshirilgan.

O'rta asrlarda "faylasuflar mirzosi" deb nom qozongan buxorolik mutafakkir olim Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari XVII asrda G'arbiy Yevropa tabiblarning asosiy qo'llanmasi bo'lib keldi va kelmoqda. Shuningdek, ibn Sino ijodida materiyaning doim vujudga kelishi mumkin bo'lgan narsalardan avval mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrlari psixologiya fanida muhim ahamiyat kasb etdi. Abu Nasr Forobiy hayot vaqtidayoq ikkinchi muallim nomini olgan edi u tibbiy sohasida o'rta asrning eng atoqli tadqiqotchilaridan biri edi. U keng ma'nodagi inson ruhiy jarayonlari va ta'lim tarbiya haqidagi ta'limoti bevosita fiziologik jarayonlar bilan psixik jarayonlar orasidagi bog'liqlik haqidagi dunyoni ta'limoti psixologiya fanining taraqqiy etishida muhim rol o'ynaydi.

XX asrga kelib, O'zbekistonda ham boshqa fanlar qatori psixologiya fanining rivojlanishiga imkon to'g'ildi. Qozon universitetini tamomlagan 1941-1968- yillar mobaynida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutini tamomlagan. Psixologiya kafedrasiga mudirlik qilgan P.I.Ivanov O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shdi. 80 ha yaqin ilmiy qollanma va maqolalar yozdi. Ayniqsa umumiy psixologiya, mehnat psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya yo'nalishlarda ilmiy ish olib borgan.

O'zbekistonda psixologiya sohasiga hissa qo'shgan olimlardan yana biri M.G.Davlatshen bo'lib, uning asosiy ilmiy yo'nalishlari o'quvchilarda texnik qiziqishlar, qobiliyatlarning shakllanishiga, mehnat ta'limi va kasbga yo'nalish muammolariga, pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qituvchi kadrlar tayyor samaradorligini oshirishga qaratgan edi. Uning ilmiy ishlari ichida "5-7- sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarini shakllantirish (1956)" "Qiziqish va ta'lim"(1962), "Maktab o'quvchilarining texnik qobiliyati psixologiyasi" (1971). "Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi"(2000), "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" kabi o'quv- metodik qo'llanma va ilmiy maqolalari psixologiya fanining ravnaqiga muhim hissa qo'shdi desam mubolag'a bo'lmaydi.

E. G'oziyev (1992- yilda psixologiya fanlari doktori, 1994- yilda professor) ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining, xotira shaxs psixologiyasi masalalari, bilish

nazariyasining psixalogik muammolar, komil insonni tarbiyalashning psixalogik asoslari kabi masalalarni yoritishga e'tibor berdi. Uning "O'quvchilar o'quv faoliyatini boshqarish"(1988), "Oila etikasi va psixologiyasi"(1992), "Psixologiya"(1992) "Tafakkur", "Xotira", "Shaxs", "Umumiy psixologiya", "Faoliyat va xulq atvori motivatsiyasi"(2003) nomli qo'llanmalari ko'p sonli talablarning asosiy o'quv qo'llanmasi bo'lib xizmat qilmoqda.

G'. Shoumarov (1990- yilda fan doktori, 1993- yili professor) differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, psixodiagnostika, o'zbek oilasining ijtimoiy psixologik, etnopsixologik xususiyatlarini masalasini o'rganishga katta e'tibor berdi. Respublikada psixalogik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, yosh va pedagogik psixologiya, boshqaruv psixologiyasini yoritishga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-amaliy maqolalar yaratdi. "Muhabbat va oila", "Oila psixologiyasi", "1001 savolga psixologning 1001 javobi", "Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma", kabi bir qancha maqolalar va kitoblar yaratdi.

Yosh psixologiyasida M.A. Muzaffarov "O'smir yoshlarning tasavvur qilish asoslari" (80 dan ortiq ilmiy maqola) B.Mamajonovning "Umumiy psixologiyadan amliy mashg'ulotlar", "Psixika hodisalari haqida", "Bolalarda ijobiy va salbiy ertak personajlari haqida tasavvurlarni shakllantirish jarayonini psixalogik tasavvurlarni shakllantirish jarayonini psixalogik tadqiq qilish" kabi X.G'affarovning umumta'lim maktablarida o'quvchilarda tasavvurlarning shakllanishiga ta'siri haqidagi maqolalari, S. Rahimovning "Abu Ali ibn Sinoning psixalogik qarashlari". O'zbek xalqining xotin qizlari ichida birinchi marta psixologiya fanlari doktori(1994) ilmiy darajasini olgan farg'onalik ayol V.Karimova ham O'zbekistonda psixologiya fanining ravnaqiga katta hissa qo'shmoqda. Olimaning "O'zbek ayoli shaxsining shakllanishi", "Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot"(1999), "Tashkiliy xulq", "Mustaqil fikrlash(2000), "Salomatlik psixologiyasi" kabi o'quv qo'llanmalaridan oliy o'quv yurtlari o'qituvchi va talaba yoshlari keng foydalanmoqdalar. Shu va shu kabi psixologiya sohasiga o'z hissalarini qo'shgan olim va olimalar ko'plab topiladi. Ular o'zlarining mehnati va bilimi bilan o'zbek psixologiyasi rivojlanishida o'zining mehnati bilan o'chmas iz qoldirishgan.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan olimlar o'zbek psixologiya sohasida o'z nomlari bilan o'chmas iz qoldirdi. Bu albatta bizga o'zgacha faxr tuyg'usini shakllantiradi ammo, bizni ranjitadigan tomonlari ham talaygina topiladi.Xususan bizda nega psixologiya sohasi rivojlanmagan? Qotib qolgan, nega bizda psixologman deyishsa psixlarni davolaydi degan streatiplar qotib qolgan? Mening nazarimda bizni sodda o'zbek xalqimizda go'yoki o'z dardini kimgadir aytishni uyat, nomus deb bilishadi.Shuning uchun bo'lsa kerak yomon tush ko'rsang suvga ayt kabi gaplar uchrab turadi. Bizda go'yoki "Psixologiya borish bu-zaiflik" degan noto'g'ri qarash mavjud. Bundan

tashqari bizda ko'pchilik ruhiy salomatlik muammolarini tan olishdan cho'chidi. Nazarimda bu eng katta zaiflik, qachonki inson o'z dardiga malham bo'ladigan kishini topa olmas ekan, u inson o'z-o'zini stressga tushiraveradi. Z. Freyd ham ko'p yillik izlanishlar orqali shu narsaga amin bo'lganki insonni gapirish kerak ya'ni "kotarsis" gapirish orqali odamni qiynayotgan narsa nima ekanligini bilish mumkin u xoh bolalikdagi travma bo'lsin, xoh unutilish qiyin bo'lgan xotira bo'lsin kotarsis orqali hammasiga yechim topish mumkin, hatto rus fiziolog ham psixologi Valeriya Sinelnikov ham insondagi kasalliklar ularning ong ostida qolib ketgan travmalar ekanligini aytgan va buni yechimini potsentlarini gapirtirish orqali topgan. Bu olimning davolash ishlari orqali ko'pgina insonlar sog'ayib oyoqqa turishgan. Bizda esa bu kabi yangiliklarni uchratish qiyin. Hech bir psixolog o'z shaxsiy klinikasi orqali rivojlanib insonlarni davolabdi degan gaplarni hech eshitmaganmiz, lekin natija yo'q, albatta bunda aynan kimnidir ayblay olmaymiz. Bizda ham bor o'z shaxsiy psixologik klinikasi orqali o'z ishini rivojlantirayotgan psixologlar lekin negadir ularning natijasi ko'zga tashlanmaydi, balki bunda yuqorida aytib o'tgan insonlarda qotib qolgan streatip sablidir. Nima bo'lganda ham biz har yili minglab psixologlarni chiqaryabmiz lekin natija yo'q bizda eng katta muammo malakali psixologlar yetishmovchiligi mavjud. Psixologiya sohasiga o'qishga kirgan talablarning ko'pchiligi bu sohaga diplom uchun yoki kirish bali pastroq bo'lgani uchun yoki tavakkalchilik hisobiga topshirgan. O'z qiziqishi bilan topshirgan o'quvchilar juda kam sonni tashkil qiladi. Bu albatta keyinchalik malakali mutaxassislar yetishmovchiligini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari bizda maktab va oliy ta'lim muassasalarida psixologlarning o'rni hali ham past va sust bilamizki maktab psixologlarining oyli judayam past bu oylik bilan ro'zg'or tebratib bo'lmaydi. Maktab psixologi o'zining shaxsiy ishidan ikki uch baravar ishlarni ham qilishga majbur bo'lishi ya'ni boshqa ustozning darsiga kirib o'tirish, maktab psixologiga biriktirilgan o'quvchilar sonidan ko'p bola berish, bunga esa psixologning ham ko'nib ishlashi yuqorida aytganimizdek yetarli malakaga ega bo'lmasligini bildiradi. Bizda yana muhim masalalardan biri bu ilmiy tadqiqot amaiyotning orqada qolishi zamonaviy psixologiya tadqiqotchilari kam olib boriladi. Ko'pgina amaliyotlar eski yondashuvlarga asoslangan. Mahalliy mentalitetimizga mos keladigan psixokonsultatsiya, psixoterpiya, kabi usullar kam ishlab chiqilgan. Biz bilamizki bizni mentalitetimizga Yevropa madaniyati aks ettirilgan test, har xil metodlar, treninglar ular bilan bizning dunyo qarashimiz har xil ularda asosan ochiqlik, bizda esa milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz mavjud. G'arb madaniyati aks etgan har xil test va metodlarini bizda o'tkaza olmaymiz axir har bir millatning o'z dunyo qarashi mavjud. Psixologiya bo'yicha yetarli adabiyot mavjud emasligi, o'zbek tilida ilmiy maqolalar va kitoblar yetarlicha mavjud emas. Bizga kerakli barcha adabiyotlar ingliz yoki rus tilida. Bizga esa chet el tajribasini o'rganish uchun ingliz yoki rus tilini bilish

talab qilinadi. Bundan tashqari universitetlarda psixologiya ta'lim sifati hamon rivojlanishga muhtoj.

XULOSA

O'zbekistonda psixologiya sohasi XX asr boshlarida ancha rivojlangan yuqorida keltirib o'tgan psixologlar tomonidan psixologiya sohasiga ko'plab yangiliklar kiritilgan. Hozirgi kunga kelib esa psixologiya sohasi biroz oqsayotgandel tuyuliyabdi. Meni nazarimda, bunga bir necha sabablarni ham keltirib o'tganimdek yuqoridagi ba'zi gaplarga qo'shimcha tarzda shuni alohida ham aytishni joiz deb bildim. Mening nazarimda hozirgi kunda psixologiya sohasida moliyaviy va huquqiy muammolar ham talaygina xususan xususiy psixalogik xizmatlar qimmat va hamma uchun ham qulay emas ya'ni oddiy insonlar uchun psixalogik xizmat yetarli emas va ularning narxi qimmat. Bundan tashqari psixologlarning huquqiy maqomi va kasbiy standartlari hali to'liq shakllanmagan, bu ham albatta bu sohaning oqsashiga olib keladi. Men bu masalarda o'z yechimlarimni aytib o'tishimni muhim deb bilaman. Xususan psixalogik savodxonlikni oshirish uchun ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim, sababi hozirgi globallashuv davrida internet orqali tarqalgan barcha narsa tez va oson ommaga tarqaladi. Psixologiya bo'yicha o'zbek tilida ilmiy adabiyotlar va o'quv dasturlarini ko'paytirishni muhim deb o'ylayman. Bundan tashqari psixolog malakasini oshirish va zamonaviy yondashuvlarni tadqiq etish talab etiladi. Shu o'rinda psixologiya sohasida tahsil olayotgan tengdoshlarimga va kasbdoshlarimga ham bu sohani mukammal o'zlashtirishlarini so'rab qolardim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nishonova Zamira Taskarayevna. Psixalogik maslahat: o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010- N to'plam.
2. <http://nauchniyimpuls.ru>.
3. E.G'oziyev. "Umumiy psixologiya".
4. Ismatullayeva Nafosat Rustam qizi. Muminjonova Saida Xaitovna "O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi" nomli maqola.
5. Platon Ivanovich Ivanov. "Umumiy psixologiya" M.E.Zufarova tarjimasi.
6. M.G.Davletshin. "Zamonaviy maktab o'qituvchilari psixologiyasi(2000).
7. Z. Qodirova "Psixologiya"(2000)